

## GAP BO`LAKLARIGA OID TERMINLARINING EVOLYUTSIYASI

G`ofurova Barchinoy Xursanboy qizi

*Andijon davlat universitetining lingvistika yo`nalishi 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** O`zbek tilida gap bo`laklari terminlarining nomlanishi yuzasidan fikr-mulohazalar bayon qilingan.

**Kalit so`zlar:** bosh bo`lak, ikkinchi darajali bo`lak, ega, kesim, to`ldiruvchi, hol, aniqlovchi, aniqlangan (aniqlanmish), sodda va murakkab bo`laklar, birikmali bo`lak.

### KIRISH

Turkiy tillarning grammatik tizimi ayrim sohalarda hind-yevropa va boshqa til oilalari bilan parallel ravishda taraqqiy qilgani faktik materillarda namoyon bo`ladi. Turkiy tillardagi gapning asosini, yadrosini predikativ munosabat tashkil etadi. Predikatsiya ega va kesim o`rtasidagi munosabat bo`lib, ega ifodani namoyon etuvchi, kesim esa ifodaning o`zi hisoblanadi. Gap bo'laklari: kesim, ega, to`ldiruvchi, aniqlovchi, hol. Kesim gapning asosini tashkil qiluvchi markazdir. Ega kesimga ergashib, kesimda ifodalangan ish-harakatning bajaruvchisini ko`rsatadi. To`ldiruvchi, aniqlovchi, hol bo'laklari ega va kesimga ergashib kelib, ularni to`ldiradi, aniqlaydi yoki izohlavdi. Shuning uchun ular gapning ikkinchi darajali bo'laklari deyiladi. Azim Hojiyevning say-harakatlari bilan 1985-yilda chop etilgan «Lingvistik terminlarning izohli lug`ati» predikat, predikativ aloqa, logik va grammatik kesim, kesimsiz gap terminlariga alohida izoh beriladi:

Predikat (lot. *Predicatum* – aytilgan) ayn. Logik kesim. Logik kesim – hukmda subyekt haqida xabar beruvchi bo`lak. Shuningdek, ega va kesim o`rtasidagi aloqani predikativ aloqa termini bilan izohlangan. Shu o`rinda logik kesim ko`rsatilib, ayni bir o`rinda mantiqiy kesim ham deb berilgan. Aslida “logik”, “mantiqiy” terminlari bir xil ma’noni anglatadi. Barcha tilshunoslikka xususan, N. Mahkamov va I. Ermatovlar muallifligida 2013-yilda chop etilgan «Tilshunoslik terminlarning izohli lug`ati» va boshqa tilshunoslikka oid kitoblarda kesim va ega haqidagi qoidalar talqin etish har xil bo`lishi mumkin, lekin mohiyat va mazmun o`zgarmaydi.

Azim Hojiyevning «Lingvistik terminlarning izohli lug`ati» da logik kesim va grammatik kesimni bir-biridan farqlagan. Hukmda subyekt haqida xabar beruvchi bo`lak bu – logik kesim. Grammatik kesim – gapda predikatitsiya ifodalab keluvchi bosh bo`lak. Ikki tajribali gaplarda ega bilan ifodalangan shaxs, predmet, hodisaning belgisini tasdiq yoki inkor yo`li anglatuvchi bosh bo`lak. [A.Hojiyev. 48-b].

Gap bo`laklari haqida gap ketganda, Fitrat Arastuning atributiv mantiqiga asoslangan sintaktik nazariyaga tayangan va kesim bilan egani bosh so`zlar tarkibiga kiritgan edi.[«Nahv»,6-bet]. Fitrat bosh bo`laklarni “bosh so`zlar” termini bilan ishlatgan. Tuzilish asosi faqat ega va uning tarkibidan iborat gap. Nominativ gap.M: Qop-qora tun. [A. Hojiyev 49-bet] termini bilan lug`atda berilgan bo`lsa, N. Mahkamov va I. Ermatovlar “Atov gap”

termini qo'llagan.[«Tilshunoslik terminlari izohli lug`ati». 49-bet] Bugungi kundagi darslik va qo'llanmalarda shu termin faollashgan.

Professor A. Hojiyev Logik ega va gramma tik egalarni bir-biriga qiyoslaydi. Grammatik ega – ikki tarkibli gaplarda fikrning kimga? nima? qarashli ekanini anglatuvchi, belgisi kesim tomonidan aniqlanadigan, Grammatik jihatdan mutloq hokim vaziyatga ega bo`lgan bosh bo`lak. Ega bosh kelishik shaklidagi ot, olmosh, otlashgan so`z, so`z birikmasi bilan ifodalanadi: U xalat kiygan qiz bilan chiqib ketmoqchi bo`ldi. (A. Muxtor) [131-bet]. Logik ega (mantiqiy ega, mantiqiy subyekt – gapda fikr yuritilayotgan narsa(shaxs yoki predmet). Mantiqiy ega o`z ifodasiga ko`ra gramma tik ega bilan teng kelavermaydi. Mas., mantiqiy ega gramma tik ega va ikkinchi darajali bo`lak guruhidan iborat bo`lishi mumkin. Chunki mantiq(logika) fikrning ikkinchi darajali bo`laklarini farqlamaydi. Shuningdek, bosh kelishikdagi so`z ham mantiqiy ega bo`la oladi. [61-bet] Masalan: Xat Karim tomonidan yozildi. Ushbu gapning gramma tik egasi xat so`zi bo`lsa, mantiqiy egasi esa Karim hisoblanadi. Sodda va qo`shma ega ham lug`atda izohlangan. Nizomiddin Mahkamov va I. Ermatov “Fan” nashriyotida 2013-yilda bosilib chiqqan «Tilshunoslik terminlarining izohli lug`ati» da bu haqda to`xtalmagan.

Fitratning sintaktik qarashlari hali o`zbek sintaksisining mundarijasi belgilanmagan, sintaktik tushunchalarni ifodalovchi atamalar tizimi izga solinmagan davrda tilshunoslikka oid asarini vujudga kelishi o`zi bir katta voqeа bo`lgan edi. «O`zbek tili qoidalari birinchi tajriba. Nahv» asarida ega va kesimdan tashqari boshqa bo`laklar haqida ham fikr yuritib, bosh so`zlardan boshqa barcha bo`laklarni “to`ldirg`ichlar” atamasi ostida nomlaydi. To`ldirg`ichlar quyidagi turlarga bo`linadi:

- 1) tushum – vositasiz to`ldiruvchi;
- 2) borish – ga-cha-dovur-davur kabi qo`shimcha va ko`makchilar bilan kelgan;
- 3) chiqish – chiqish kelishigidagi barcha bo`laklar;
- 4) o`rin – gapda anglashilgan fikrning o`rnini bildirishi va -da shaklidagi so`zlar;
- 5) birgalik – bilan , bila ila -la yordamchilari bilan birga kelgan bo`laklar;
- 6) chog` – hozirgi o`zbek tilshunosligidagi payt holi ifodalanadi;
- 7) nechunlik – sabab ma’nosini bildiruvchi gap bo`lagi. Fe’llarga -ga-g`o-gali-g`ali-qali kabi qo`shimchalar qo`shilgan so`zlar shunday to`ldirg`ich vazifasida keladi. Bugungi tilshunosligimizda bu bo`lak vazifasini “sabab holi”bajaradi.
- 8) nechunlik to`ldirg`ichlari – ochiq gapirdi, kulib qaradi, arabcha so`zлади . ochiq, kulib, arabcha so`zлari nechunlik to`ldirg`ichlari sanaladi. Ko`rinadiki, bu atama ostida hozirgi o`zbek tilshunosligidagi ravish hollari bayon qilinadi. Fitrat gap tarkibidagi bo`laklarni 3 guruhg ajratadi: bosh so`zlar, to`ldirg`ichlar va aniqlov uyushmalariga bo`ladi. Hozirda bu terminlar bosh bo`laklar, ikkinchi darajali bo`laklar atamasi bilan almashtirilgan. Fitrat 20-yillardagi tilshunoslik qarashlari o`zbek tilshunosligida 80-90-yillarda ko`tarildi. Bundan shuni bilishimiz kerakki, Fitrat zehni o`tkir tilshunos olim bo`lgan. [A. Nurmonov, 158-159-bet].

Ikkinci darajali bo`laklar bosh bo`laklarni to`ldirib, izohlab, aniqlab keladi. Shu jihatidan 3 guruhga bo`linadi. Gapda barcha bo`laklar o`z vazifasiga ko`ra farqlanadi.

Aniqlovchi – narsa-buyumni ifodalaydigan so`zga tobelanib, uning belgisini anglatadigan ikkinchi darajali bo`lak; atributiv birikmaning tobe komponenti: keng vodiyning qoramtili tuprog`i yomg`irdan keyin bo`kib yotardi. Aniqlovchining 3 turi farqlanadi: sifatlovchi, qaratqich, izohlovchi aniqlovchilar. [A. Hojiyev, «lingvistik terminlar izohli lig`ati» 15-bet]. Shuningdek bu lug`atda aniqlovchining sodda va qo`shma aniqlovchi, aniqlovchili aloqa, birikma, sintagma, munosabat, tuzilmalari haqida batafsil ta`rif berilgan. Yuqoridagi hosilalarining barchasida aniqlovchi va aniqlanmish o`rtasidagi munosabatdan iborat.

Atributiv shaklga ham ta`rif berar ekan, so`zning gapda, asosan, aniqlovchi va hol vazifasida kelishiga xos shakl. Masalan, o`zbek tilidagi fe'lning sifatdosh shakli (kelayotgan, keladigan) otning o`xshatish va o`rin belgisi (toshdek, bog`dagi) shakllari atributiv shakllardir. Atribut -(lot. atributum – qo`shib qo`yish, qo`shimcha qilish) atributiv aloqa – aniqlovchi aloqa; atributiv birikma – aniqlovchili birikma; atributiv konstruktsiya – aniqlovchili qurilma; atributiv munosabat. [A.Hojiyev, 19-bet]. Fitrat aniqlovchi gap bo`lagini “aniqlov uyushmalari” termini bilan qo`llaydi va aniqlovchining gapning erkin bo`lagi bo`la olmasligi, uning bo`lakning bo`lagi bo`lishi kerakligi o`zbek tilshunosligida 80-90-yillarda ko`tarildi.

Ikkinci darajali bo`laklar yana biri hol gap bo`lagi bo`lib, hozirgi amaldagi darsliklarda 7 ta ma`no turi mavjud. Azim Hojiyev lug`atida quyidagi holning ma`no turlarini qayd etib ta`rif beriladi. Maqsad, payt, sabab, o`rin, tarz(ravish holi)hollari doim qayd etiladi. Lekin ushbu lug`atda to`siksizlik holi va chegara holi haqida ham ma'lumot berilgan.

Chegara holi – harakat va holatning vaqt yoki masofa nuqtai nazaridan chegarasini bildiruvchi hol. Holning bu turini –gacha affaksi yordamida yasaluvchi chegara shakli orqali ifodalanadi. Masalan: Bu atroflarga avtobus kelmas ekan, markazgacha piyoda borish kerak. [A. Hojiyev, 127-bet] To`siksizlik holi – harakatning ro`y berishiga to`sinq bo`la olmaydigan harakat-hodisani bildiruvchi hol. Masalan: ...kunning issig`iga qaramay, Sherbek kultivatsiya qiladi. [A, Hojiyev, 113-bet ].

To`ldiruvchi bu bo`lakka tegishli vositali (obyekt) va vositasiz, to`ldirilmish, uyushiq to`ldiruvchilar haqida fikr bildirib o`tilgan.

Determinant –gapning boshida mustaqil tarkibiy qism sifatida kelib, o`zidan keying qismga bir butun holda talluqli bo`lib, uni yaxlitligicha kengaytiradigan ikkinchi darajali bo`lak.

Masalan, Kecha havo bulut bo`lib, bir oz yomg`ir yog`di. Bu yerda birinchi qism determinant bo`lakdir. [A. Hojiyev, 34-bet]. Yuqorida biz A. Hojiyevning “lingvistik terminlar izohli lug`ati”da qayd etilgan gap bo`laklari terminlarining nomlanishini qayd egan bo`lsak, endi N. Mahkamov va I. Ermatovlar hammallifligida 2013-yilda chiqqan

“Tilshunoslik terminlarining izohli lug`ati”da berilgan lingvistik terminlarni bir-biriga qiyosladik.

Hol – kesimga bog`lanib, undan anglashilgan ish-harakatning o`rni, payti, holati, bajarilish sababi, maqsadi, daraja-miqdorini bildiruvchi bo`lak. Ma`nosiga ko`ra 6ta turga bo`linib, tuzilishiga ko`ra esa sodda v murakkab holllarga bo`linadi. [N. Mahkamov va.boshq. 19-bet]. Bosh va ikkinchi darajali bo`laklar hammasi sodda va murakkab holda ifodalanadi. Ushbu lug`atda chiqish va yo`nalish holi haqida ham ma'lumot berilib, ta'rifi keltirilgan. Chiqish holi – ish-harakatning boshlangan o`rnini bildiradigan bo`lak. chiqish holi qayerdan? so`rog`iga javob bo`ladi. Masalan: Biz maktabdan keldik. [N.Mahkamov. 142-bet]. Yo`nalish holi – ish-harakatning yo`nalish tomonini bildiruvchi bo`lak. qayerga? qayoqqa? so`roqlariga javob bo`ladi. Masalan: hammamiz mustaqillk maydoniga bordik. N.Mahkamov. 133-bet]. Bugungi darsliklarimiz va tilshunoslik lug`atlarimizda chiqish va yo`nalish holi o`rin holi tarkibiga kiritilgan. Shuningdek, kesimga hol bo`lagining kesimga bevosita yoki bilvosita bog`lanishi ko`ra mustaqil va nomustaql hol turlariga ajratilgan. Dalalarda boshlandi ish – mustaqil hol. Daladan charchab kelgan yigit, tezda uxbab qoldi – nomustaql hol bo`la oladi. [24-bet]. Xuddi shu holat to`ldiruvchi gap bo`lagida ham uchraydi.

To`ldiruvchi – gapning biror bo`lagiga boshqaruv yo`li bilan bog`lanib, uni to`ldirib keluvchi ikkinchi darajali bo`lak. To`g`ri to`ldiruvchi – tushum kelishikli ot yoki otlashgan so`z. aynan. Vositasiz to`ldiruvchi hisoblanadi. [N. Mahkamov. 120-bet].

Vositasiz to`ldiruvchi – belgili va belgisiz tushum kelishigidagi so`zlar bilan ifodalanadi.

Vositali to`ldiruvchi - jo`nalish, chiqish, ba'an o`rin-payt kelishiklari qo'shimchalari yoki uchun, bilan, orqali, xususida, to`g`risida kabi ko`makchilarini olgan so`z va so`z birikmalari.[128-bet]. Kelishik yoki ko`makchilar bilan birga kelishiga qarab, kelishikli to`ldiruvchi va ko`makchili to`ldiruvchilarga ajratiladi. [58-bet].

Birgalik to`ldiruvchi – XX asr ona tili darsliklarida qo'llangan termin. Hozirgi kunda bilan, ila ko`makchilar bilan ishlatiladi. Ko`makchili to`ldiruvchidir. Har bir gapda ma'lum obyektiv mazmun ma'lum materil vositalar – so`zlar vositasida ifodalanadi. Gapning ana shu material ifodalanish tomoni uning sintaktik strukturasi hisoblanadi. Sintaktik strukturani tashkil etgan elementlar tilshunoslikda turlicha terminlar bilan yuritiladi: gap bo`laklari (traditsion tilshunoslikda), sintaksema (Muxin), sintaktik forma(G. Zolotova) va boshq. Gap bo`laklari konseptsiyasi tilshunoslikda XX asr o`rtalariga qadar gapning sintaktik tahlilida yetakchi ro`l o`ynagan. Shunga qaramay, gap bo`laklari konseptsiyasi hech qachon bir xil bo`limgan. Bu turlicha qarashlar turli davrlardagina emas, balki bir davrning o`zida ham mavjud bo`lgan. Tilshunoslар, asosan, 5 ta gap bo`lagi borligi va ular bosh va ikkinchi darajali bo`laklarga ajralishi haqida fikr yuritadilar. Xusan, Fitrat “Nahv” asarida 3 guruhga bo`lib, bosh so`zlar, to`ldirg`ichlar va aniqlov uyushmalari terminlari bilan nomlagan. O`zbek tilida gap bo`laklari 5 ta bo`lsa, oltoy tillar guruhi kiruvchi koreys tilida 7 ta gap bo`lagi bor. Turkiy tillarning sintaktik tizimi ham eng qadimgi oltoy bobo til xususiyatlarda namoyon qiladi.

Biz yuqorida ikki “ lingvistik terminlarning izohli lug`ati”dagi gapning bosh va ikkinchi darajali bo`laklarini bir-biriga solishtirish, ularni qanday terminlar bilan nomlanganligini ko`rib chiqdik. Lingvistik terminlarning nomlanish atamalari o`zgarishi mumkin, lekin mazmun va mohiyat saqlanib qolinadi. Endi bizning oldimizda turgan eng katta amalgamoshiriladigan loyiha bu – “O`zbek tilshunoslik terminlarining izohli lug`ati”ni yaratishdir. Bunda tarixiy va bugungi kundagi zamonaviy tilshunoslik terminlarini ham o`z ichiga olishi kerak, deb o`ylaymiz. Zero har bir tilning imkoniyat va salohiyati bevosita lug`atda namoyon bo`ladi. Shu orqali til taraqqiyotiga xizmat qiladi.

#### **FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A.Hoziyev. Lingvistik terminlarning izohli lug`ati .T – 1985. 158. 81-bet
2. A. Nurmonov. O`zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent –“O`zbekiston”-2002. 156-b.
3. A. Nurmonov. Tanlangan asarlari. Toshkent –“Akademnashr”-2012.403-b. 1-jild.
- 4.Рахматуллаев Ш. Узбек тилида тобе багланишнинг турлари.Т., «Университет»,1993.
5. H.Dadaboyev, Z.T. Xolmonova Turkiy tillarning qiyosiy-tarixixiy grammatikasi // o`quv qo`llanma. Т.: “Tafakkur Bo`stoni”, 2015. 150-b.
6. N. Mahkamov va I. Ermatov. Tilshunoslik terminlarining izohli lug`ati. Toshkent – 2019., 144-bet. [www.ziyouz.comkutubxonasi](http://www.ziyouz.comkutubxonasi).
7. Храковский В.С. Концепция членов предложения в русском языкоznании XIX века // Грамматические концепции в языкоznании XIX века. – Л.,1985.– С. 124.
8. Sh. Shahobiddinova. O`zbek tilida Ingistik atamalar talqiniga doir. «XXI asr o`zbek uslubshunosligining dolzarb masalalari» mavzusidagi resbuplika ilmiy-amaliy materiallari. Samarqand – 2021. 466-470. 546-b.
9. Farmonova. B. O`zbek tilidagi tilshunoslik terminlarining mobil ilovasini yaratish. 2021., 1-son. Resbuplika ilmiy-texnikaviy konferensiya. 79-84-bet. <http://compling.navoiy-uni.uz/>